

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025
dekabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 146 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
<i>Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinovna</i>	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
<i>Turayeva Gulizahro</i>	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
<i>Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor</i>	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
<i>Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li</i>	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
<i>B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev</i>	
ISLOM MOLIYASI TAMOIYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
<i>Safarova Nasiba Gulmurod qizi</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
<i>Даниярова Улбосын Куатбаевна</i>	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
<i>Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna</i>	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
<i>Soliyev Azizbek Kamoldinovich</i>	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
<i>Голышева Елена Вячеславовна</i>	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
<i>Musayeva Dilnoza Dilshatovna</i>	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
<i>Уринов Адхамжон Акбарович</i>	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
<i>A.Xakimov, X.Xakimov</i>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
<i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i>	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
<i>Xusanova Maloxat Mengnorovna</i>	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
<i>Saidova Kamola Xoshimovna</i>	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuv Niyetulla Raxmanovich	
YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARINING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH	114
Mamajanova Odina Alisher qizi	
KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	119
Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi	
TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH	124
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION	128
Sadikov Shoxrux Shuhratovich	
BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	133
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	139
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO‘LLARI

Xaitov Shaxzod Sharipboyevich

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB

Chakana biznes departamenti, direktor o‘rinbosari

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklari tomonidan loyihalarni islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishning nazariy va amaliy yo‘llari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida islom moliyasining asosiy instrumentlari - murabaha, mudaraba, musharaka, ijara va boshqa shariatga muvofiq moliyalashtirish vositalari tijorat banklari kontekstida loyihalarni moliyalashtirish jarayonida qanday tatbiq etilishi, ularning operatsion mexanizmlari, risk-taqsimlash va daromad-taqsimlash xususiyatlari ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada islom moliya instrumentlari tijorat banklariga taqdim etishi mumkin bo‘lgan afzalliklar (investitsion faoliyatni diversifikatsiya qilish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, qarzdorlik yukini kamaytirish, investitsiyalarning real sektorga yo‘naltirilishini rag‘batlantirish) hamda ularni joriy etish jarayonida yuzaga keladigan institutsional, huquqiy va operatsion to‘siqlar (shariat boshqaruvi mexanizmi, soliq va hisob-kitob normalari, shariatga mos mahsulotlar dizayni, kadrlar va axborot infratuzilmasi) batafsil tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, islom moliyasi, loyihalarni moliyalashtirish, murabaha, musharaka, mudaraba, ijara, salyam, istisnoa, islomiy darcha, islomiy banklar, islom taraqqiyot banki, shariat kengashi, investitsiya, investitsion loyihalar, islomiy kapital bozori, xalqaro islom moliya standartlari.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical approaches to financing projects by commercial banks through Islamic financial instruments. The study examines how the main instruments of Islamic finance - murabaha, mudaraba, musharaka, ijara, and other Sharia-compliant financing mechanisms - are applied in the context of project financing by commercial banks, highlighting their operational procedures, risk-sharing features, and profit distribution principles. The article provides an in-depth analysis of the potential advantages that Islamic financial instruments may offer to commercial banks, including diversification of investment activities, expansion of financial inclusion, reduction of debt burden, and promotion of investment flows into the real sector of the economy. It also discusses the institutional, legal, and operational challenges that arise during the implementation of these instruments, such as Sharia governance mechanisms, taxation and accounting norms, Sharia-compliant product design, human capital development, and information infrastructure.

Keywords: commercial banks, Islamic finance, project financing, murabaha, musharaka, mudaraba, ijara, salam, istisna, Islamic window, Islamic banks, Islamic Development Bank, Sharia supervisory board, investment, investment projects, Islamic capital market, international Islamic finance standards.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические пути финансирования проектов коммерческими банками посредством инструментов исламских финансов. В рамках исследования раскрываются основные инструменты исламского финансирования — мурабаха, мудараба, мушарака, иджара и другие шариатски допустимые формы финансирования, а также особенности их применения в процессе проектного финансирования в контексте деятельности коммерческих банков. На научной основе рассматриваются их операционные механизмы, специфика распределения рисков и доходов. В статье детально анализируются преимущества, которые инструменты исламского финансирования могут предоставить коммерческим банкам (диверсификация инвестиционной деятельности, расширение финансовой инклюзии, снижение долговой нагрузки, стимулирование направления инвестиций в реальный сектор экономики), а также институциональные, правовые и операционные барьеры, возникающие в процессе их внедрения (механизм шариатского управления, налоговые и бухгалтерские нормы, разработка шариат-соответствующих продуктов, кадровое обеспечение и информационная инфраструктура).

Ключевые слова: коммерческие банки, исламские финансы, проектное финансирование, мурабаха, мушарака, мудараба, иджара, сальям, истисна, исламское окно, исламские банки, Исламский банк развития, шариатский совет, инвестиции, инвестиционные проекты, исламский рынок капитала, международные стандарты исламских финансов.

KIRISH

Jahon moliya bozorida islom moliyasi so'nggi yillarda jadal rivojlanib, 2024-yilga kelib uning umumiy aktivlari 3,96 trillion AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Pandemiya oqibatida yuzaga kelgan global iqtisodiy cheklavlarga qaramay, islom moliya sektorining barqaror o'sishi hukumatlarning qo'llab-quvvatlovchi siyosati, shuningdek, aholining shariatga muvofiq moliyaviy mahsulotlarga bo'lgan yuqori talabidan dalolat beradi. Natijada islom moliya tarmog'i kapital bozorlari, bank xizmatlari, sukuk emissiyasi, mikromoliyalashtirish va boshqa yo'nalishlarda izchil kengayib, an'anaviy moliya tizimiga nisbatan yuqoriroq barqarorlik ko'rsatkichlarini namoyish etmoqda.¹ Pandemiya davri moliya tizimlarida yangi chaqiriq va ehtiyojlarni yuzaga keltirib, milliy moliya bozorlarini diversifikatsiya qilish, risklarni adolatli taqsimlash va real sektorni qo'llab-quvvatlovchi barqaror mexanizmlarni joriy etish zaruratini kuchaytirdi. Shu nuqtayi nazardan, islomiy moliyalashtirish amaliyoti tobora ko'proq e'tibor qozonmoqda, chunki u moliyaviy faoliyatni real aktivlarga bog'lash, spekulativ operatsiyalarni cheklash, foyda va zararlarni sheriklik tamoyillari asosida taqsimlash kabi xususiyatlarga ega. Bu esa uni iqtisodiy inqirozlarga eng kam ta'sirchan moliyaviy mexanizmlardan biriga aylantiradi.

Tijorat banklari tomonidan loyihalarni islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish aynan mana shu afzalliklardan kelib chiqib, zamonaviy moliya sektorining dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Murabaha, mudaraba, musharaka, ijara, istisnoa, salam kabi instrumentlar banklar uchun loyihalarni moliyalashtirishning muqobil yo'lini yaratib, real investitsiya faolligini oshirish, risklarni sheriklik asosida taqsimlash, qarzdorlik yukini kamaytirish va resurslarning iqtisodiyotning real sektori bo'yicha samarali taqsimlanishini ta'minlab beradi. Shu jihatdan, tijorat banklari tomonidan islomiy instrumentlarni qo'llash nafaqat moliyaviy xizmatlar spektrini kengaytiradi, balki bank aktivlarining sifatini yaxshilash va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida islom moliyasidan foydalanish bo'yicha huquqiy asoslarni yaratish yo'lida muhim qadam sifatida 2022-yil 20-aprelda qabul qilingan "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi O'RBQ-765-sonli Qonun e'tirof etiladi. Mazkur normativ hujjat islomiy moliyalashtirish xizmatlarini joriy etish, shariatga mos moliyaviy mahsulotlarni taklif etish va ularni tartibga solish bo'yicha yangi imkoniyatlar yaratdi. Ayniqsa, tijorat banklarida "islomiy darcha" (Islamic window) mexanizmining amaliyotga tatbiq etilishi islom moliya instrumentlari orqali loyihalarni moliyalashtirish jarayonini faollashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Milliy moliya sektorida islom moliyasi instrumentlaridan foydalanishning asosiy maqsadi - iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida muqobil moliyalashtirish vositalarini kengaytirish, xatarlarni boshqarishning adolatli mexanizmlarini joriy etish va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishdan iborat. Bu esa tijorat banklari orqali investitsion loyihalarni moliyalashtirishda islomiy instrumentlarning rolini kuchaytirishni zarur qiladi. Umuman olganda, tijorat banklari tomonidan islom moliya instrumentlari orqali loyihalarni moliyalashtirish - pandemiyadan keyingi davrda barqaror iqtisodiy tiklanish, moliyaviy diversifikatsiya, risklarni samarali boshqarish va real sektorga investitsiya oqimlarini kuchaytirishning eng maqbul yo'llaridan biridir. Bu jarayon mamlakatning moliyaviy transformatsiyasiga xizmat qiladi va xalqaro islom moliya bozoridagi tendensiyalar bilan mos rivojlanish imkonini yaratadi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon moliya tizimida an'anaviy banklar kredit mablag'larini daromadi oldindan kafolatlangan, sotilishi yoki ijaraga berilishi mumkin bo'lgan moliyaviy xizmat sifatida talqin qiladi. Bunda banklarning yo'qotish riski minimal bo'lib, qarz va foiz to'lovlari loyihaning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligidan qat'i nazar ta'minlanadi. Aksincha, islom bankchiligi risklarni o'zaro taqsimlashga asoslangan bo'lib, bankni kreditordan ko'ra biznes hamkor sifatida namoyon etadi. Sheriklik tamoyillariga tayanadigan islom moliyalashtirishda bank va mijoz loyihaning natijasiga teng mas'uliyat bilan yondashadi. Ikki tomonning xatar va foydani bo'lishishi esa moliyaviy operatsiyalarda ehtiyotkorlikni, javobgarlikni va real iqtisodiy natijalarga yo'naltirilgan moliyalashtirishni kuchaytiradi.

Islom moliya instrumentlarining mazkur xususiyatlari ularni zamonaviy investitsion loyihalarni moliyalashtirishda tijorat banklari uchun samarali muqobil vosita sifatida qaralishiga sabab bo'lmoqda. Xalqaro valyuta fondining sobiq rahbari Kristin Lagard ham islom moliyasining risklarni taqsimlash mexanizmi hisobiga moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga katta hissa qo'shishi mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, islomiy moliyalashtirishning aktivlarga bog'langanligi tizimni spekulativ xatarlar va sun'iy moliyaviy pufaklardan himoya qiladi.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida loyihalarni islomiy instrumentlar orqali moliyalashtirishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Islomiy banklar, sukuk emitentlari, takaful (islomiy sug'urta) kompaniyalari va investitsiya

1 Qarant: www.unctad.org . World Investment Report 2021



jamg'armalarining ko'payishi islom moliyasining global moliya tizimida barqaror o'sish sur'atlariga ega ekanidan dalolat beradi. Ahamiyatlisi, ushbu tizim musulmon bo'lmagan davlatlarda ham jadal rivojlanmoqda, bu esa islom moliya vositalarining universal iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston sharoitida ham islom moliyasini joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Prezidentning 2020-yil 29-dekabrda Murojaatnomasida islom moliyaviy xizmatlarini keng joriy etish uchun huquqiy baza yaratish zarurati alohida ko'rsatib o'tilgan. Bu esa tijorat banklari uchun loyihalarni islomiy instrumentlar orqali moliyalashtirishga o'tish jarayonini tezlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, 2022-yil 20-aprelda qabul qilingan "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-765-sonli Qonun islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini tartibga solishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi.

Ilmiy adabiyotlarda ham tijorat banklari faoliyatida islomiy moliya instrumentlaridan foydalanishning nazariy asoslari keng yoritilgan. E.T. Qodirov va J.K. Majidovlar ta'kidlashicha, islom banklari uchun loyihada ulush bilan ishtirok etish (mudaraba, musharaka) eng maqbul moliyalashtirish modeli bo'lsa-da, amaliyotda ularning aktiv portfeli ko'proq murabaha kabi qisqa muddatli savdo kelishuvlariga tayanadi. Bu holat islom moliya instrumentlarining amaliyotga tatbiq etilish bosqichma-bosqich rivojlanayotganidan dalolat beradi. [2]

R.A. Musaev va Yu.D. Magomedova globalizatsiya sharoitida islom moliyaviy institutlarining integratsion jarayonlardagi o'rni keskin ortib borayotganini ilmiy asosda yoritadi. [3] I.A. Zaripov esa islom moliyasida "pul bahosi" o'rniga "kapital samaradorligi" tushunchasining qo'llanilishi uni investitsion loyihalar uchun yanada maqbul qiladi, deya ta'kidlaydi. [4] Rafik Yunus Al-Misri islom moliyasining asosiy tamoyillarini - aktivlarga asoslanganlik, iqtisodiy faoliyatga shariat cheklolari, kapital va tadbirkorlikning uzviyligi ishlab chiqarish jarayonini moliyalashtirishda asosiy ustunlik sifatida ko'rsatadi. [5]

Shu bilan birga, El-Gamal va El-Xalifaning tadqiqotlarida islom banklari shariat normalariga tayansa-da, ular islomiy bo'lmagan iqtisodiy muhitda ham muvaffaqiyatli faoliyat yurita olishi e'tirof etilgan. [6]

A. Gait va A. Worthington esa islom moliyasining mohiyatini shariat tamoyillariga mos moliyaviy amaliyot sifatida izohlar ekan [7], M.K. Lewis va L.M. Algaoud uning rivojlanishini riba, g'arar, maysir, zakot va shariat nazorati kabi fundamental omillar bilan bog'laydi. [8] O'z navbatida Vahba Az-Zuhayli «islomiy moliya bankining asosiy maqsadi musulmon jamiyatini qayta tiklashni tashkil etish va musulmonlar o'rtasidagi hamkorlikni islom qonunlari bilan kelishuv asosida amalga oshirish ekanligini ta'kidlaydi. Shunday ekan, har qanday islomiy moliya instituti jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha vositasi sifatida foizsiz kreditlar berish orqali muhtojlarga yordam ko'rsatishga e'tibor qaratishi zarurdir» [9]

Monzer Kahf, islomiy moliya va bank ishi bo'yicha ko'plab maqola va kitoblar muallifi. Kahfa iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan mamlakatlar rivojlanishi uchun islom banklaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi. Uning fikricha, bunday banklar kam daromadli yoki an'anaviy banklarga kirish imkoni bo'lmagan shaxslar uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlay oladi. Bu barqaror rivojlanishga hissa qo'shishi va jamiyatdagi tengsizlikni kamaytirishi mumkin. Monzer Kahf islomiy banklarni suiiste'mol qilishning oldini olish va barqarorligini saqlab qolish uchun qat'iy tartibga solish va nazorat qilish zarurligiga ishora qiladi. U islom moliya tizimidagi risklarni samarali monitoring qilish va baholash muhimligini ta'kidlaydi. Umuman olganda, Monzer Kahf islom banklariga axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatli moliyaviy tizimni yaratish vositasi sifatida ijobiy nuqtai nazarga ega. U ularni, ayniqsa, kambag'allar uchun iqtisodiy rivojlanishga erishish vositasi sifatida ko'radi. [10]

Mazkur ilmiy mulohazalar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari tomonidan loyihalarni islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish nafaqat iqtisodiy jihatdan samarali, balki risklarni boshqarish, investitsiya oqimlarini diversifikatsiya qilish va barqaror moliyaviy tizim yaratish nuqtayi nazaridan ham ustuvor yo'nalishdir. Biroq O'zbekiston uchun ushbu yo'nalish nisbatan yangi bo'lgani sababli, islomiy moliya vositalari bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlar, huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish va tijorat banklari amaliyotini moslashtirish talab etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tijorat banklari tomonidan loyihalarni islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishni o'rganish maqsadida ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyosiy tahlil, retrospektiv va empirik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ilmiy abstraksiyalash orqali islomiy moliyalashtirishning nazariy-huquqiy asoslari umumlashtirildi. Guruhlash usuli yordamida murabaha, musharaka, mudaraba, ijara kabi asosiy instrumentlarning loyiha moliyalashtirishdagi xususiyatlari tizimlashtirildi. Qiyosiy tahlil orqali rivojlangan davlatlar tajribasi O'zbekiston amaliyoti bilan solishtirilib, mos takliflar ishlab chiqildi. Retrospektiv va empirik tahlil esa tijorat banklarining amaldagi islomiy moliyalashtirish tajribasi, muammolar va istiqbollarni baholashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALARI

Bugungi kunda islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish global moliya bozorida eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu tizim o'zida investitsiya faoliyatini

qo'llab-quvvatlash, real sektorni rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi mexanizmlarni mujassam etadi. Xususan, investitsiya loyihalarining kapitallashuv darajasi yuqoriligi sababli ularni moliyalashtirishda muqobil manbalardan foydalanishning ahamiyati ortib bormoqda. Aholisining katta qismi musulmonlardan iborat bo'lgan davlatlar uchun esa islomiy moliyaviy instrumentlardan foydalanish iqtisodiyotning strategik yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklari, investitsiya fondlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida islom moliya instrumentlarini qo'llash orqali investitsiya mablag'larini jalb etish davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi. Xususan, ushbu yondashuv xususiy sektorning faolligini oshirish, tadbirkorlik subyektlari uchun yangi moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratish hamda iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, milliy iqtisodiyotda an'anaviy bank kreditlash mexanizmlari bilan bir qatorda islom moliya instrumentlarini joriy etish zamonaviy bosqichda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Islom moliyasining o'ziga xosligi shundaki, u moliyalashtirish jarayonlarini shariat tamoyillari asosida tashkil etadi va bitimlar real aktivlar, sheriklik va risklarni o'zaro taqsimlashga asoslanadi. Bu jihat uni an'anaviy foizli kreditlashdan tubdan farqlaydi. Masalan, halol go'sht misolida bo'lgani kabi, moliyalashtirish jarayoni ham shariat talablariga mos bo'lishi orqali "halol moliya" sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli tijorat banklarining islomiy vositalardan foydalanishi moliyaviy operatsiyalarni nafaqat iqtisodiy, balki axloqiy va ijtimoiy jihatdan ham barqarorlashtiradi. Tijorat banklari tomonidan islom moliya instrumentlari orqali loyihalarni moliyalashtirishda xalqaro amaliyotdagi yetakchi institutlar, xususan Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom Korporatsiyasi (ICD)ning tajribasi alohida dolzarblik kasb etadi. ICD O'zbekistonda islom moliyasining rivojlanishida muhim o'rin tutib, hozirga qadar 400 million AQSh dollari miqdoridagi resurslarni 18 ta tijorat banki va 2 ta lizing kompaniyasi orqali kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyalashtirishga yo'naltirgan. Ushbu moliyalashtirish natijasida 260 dan ortiq biznes loyihalari qo'llab-quvvatlanib, 5 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratilgan. Bu esa islomiy moliyalashtirishning real iqtisodiyotga bevosita ta'sirini yaqqol namoyon etadi. Umuman olganda, tijorat banklari tomonidan islom moliya instrumentlarini qo'llash investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning barqaror, adolatli va risklarni taqsimlovchi modelini shakllantiradi. Bu yondashuv nafaqat iqtisodiyotning real sektorini rag'batlantiradi, balki milliy moliya tizimining transformatsiyasi va diversifikatsiyasiga ham samarali hissa qo'shadi². O'zbekistonda islom moliya xizmatlarini keng ko'lamda joriy etish mamlakatning moliyaviy tizimini diversifikatsiya qilish, investitsiya salohiyatini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash imkonini beradigan strategik yo'nalishlardan biridir. Islomiy moliyalashtirishning afzalliklari, ayniqsa tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Islom moliya instrumentlarining keng qo'llanishi xorijdan kelayotgan investitsiya oqimlarini ko'paytirish, bank tizimida halol va shaffof raqobat muhitini shakllantirish va bank aktivlarining diversifikatsiya darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa iqtisodiyotning real sektoriga uzoq muddatli va barqaror kapital kiritilishini ta'minlaydi.

1-jadval. O'zbekistonda islomiy moliya instrumentlaridan foydalanayotgan banklar faoliyati³

№	Bank nomi	Qo'llanayotgan / joriy etilayotgan islomiy instrumentlar	Holati / izoh
1	Ipak Yo'li Banki	Murabaha, Ijara, islomiy savdo-moliyalashtirish (ITFC liniyalari orqali)	Faol – bankda alohida "Islamic Financing" bo'limi mavjud, xalqaro ITFC bilan hamkorlik qilmoqda.
2	Hamkorbank	Murabaha, Ijara, islomiy kreditlash yo'nalishlari, islomiy finans bo'yicha Ekspert Kengashi	Faol – islomiy moliya yo'nalishiga ixtisoslashgan bo'lim mavjud, mahsulotlar taklif qilinmoqda.
3	Agrobank / SmartBank	ITFC, ICIEC, Standard Chartered Islamic orqali Shariatga muvofiq mablag'larni jalb qilish; islomiy on-lending	Faol – xalqaro moliyaviy institutlar orqali Shariatga mos kredit liniyalari jalb qilgan va mijozlarga yo'naltirmoqda.
4	InfinBANK	Murabaha asosidagi savdo moliyalashtirish (ITFC liniyasi)	Faol – 2025 yildan islomiy savdo-moliyalashtirish bo'yicha xizmatlar e'lon qilingan.
5	Trustbank	Murabaha, Ijara, Musharaka, Mudaraba, Salam, Sukukni qo'llashga tayyor islomiy mahsulotlar paketi	Jarayonda – bank ICS BANKS Islamic tizimini joriy etmoqda; to'liq islomiy mahsulotlar liniyasini ishga tushirish bosqichida.
6	Asia Alliance Bank	Murabaha, Ijara, Musharaka kabi islomiy mahsulotlar to'plamini yaratish uchun texnologik platforma	Jarayonda – ICS BANKS Islamic tizimi joriy etilmoqda; bank islomiy yo'nalishni rivojlantirishni rejalashtirgan.

2 <https://icd-ps.org/> сайти маълумотлари асосида ишлаб чиқилди

3 Muallif ishlanmasi



Mamlakatimiz tijorat banklarining Islom taraqqiyot banki (ITB) va Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom Korporatsiyasi (ICD) bilan yo'lga qo'ygan hamkorligi bu yo'nalishning amaliy natijalarini ko'rsatmoqda. Misol tariqasida, "Kapitalbank" ATB va XSRIK o'rtasida imzolangan 10 million AQSh dollarlik moliyalashtirish shartnomasi, kichik biznes subyektlarini murabaha mexanizmi orqali qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bo'lib, bu kabi hamkorliklar tijorat banklarining islomiy moliyalashtirish vositalaridan foydalanish amaliyotini yanada kengaytirayotganini tasdiqlaydi. ICD tomonidan O'zbekistonda 18 ta tijorat banki va 2 ta lizing kompaniyasi orqali 400 million dollardan ortiq mablag'ning kichik va o'rta biznes loyihalariga yo'naltirilgani ham islomiy moliyalashtirishning real iqtisodiy ta'sirini yaqqol namoyon etadi.

2-jadval. Tijorat banklari tomonidan loyihalarni islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish yo'llari⁴

Instrument nomi	Mazmuni (ilmiy ta'rif)	Qo'llash mexanizmi (bank amaliyotida)	Tijorat banklari uchun afzalliklari
Murabaha	Bank tomonidan aktivni sotib olib, xarid narxiga ma'lum ustama qo'ygan holda mijozga sotish shaklidagi savdo-moliyalashtirish instrumenti.	Bank loyiha uchun zarur uskunani, xomashyoni yoki tovarni sotib oladi va mijozga bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotadi.	Foyda oldindan belgilangan; risk past; hujjatlashtirish aniq; tezkor moliyalashtirish.
Ijara (lizing)	Bank qimmat aktivni sotib olib, uni mijozga ijara asosida foydalanishga beradi.	Mijoz aktivdan foydalanadi, bank esa har oy ijara to'lovlarini oladi; muddat tugagach aktiv mijozga o'tishi mumkin.	Barqaror daromad; aktiv bank balansida turadi; garov talabini kamaytiradi.
Musharaka	Loyihada bank va mijoz sherik sifatida kapital qo'shadi va foyda-zararni teng ulushda bo'lishadi.	Bank loyiha kapitalining bir qismini moliyalashtiradi; boshqaruvda ham ishtirok etishi mumkin.	Risk bo'linadi; bank yuqori foyda olish imkoniga ega; kapitalning real sektorga yo'naltirilishi ta'minlanadi.
Muzoraba	Bir tomon kapital beradi, ikkinchi tomon biznesni boshqaradi; foyda kelishilgan nisbatda taqsimlanadi.	Bank investor, tadbirkor esa boshqaruvchi sifatida ishtirok etadi; zarar faqat kapital egasiga tegishli bo'ladi.	Innovatsion bizneslarni qo'llash; iqtisodiy faollikni oshirish; yuqori daromadli loyihalarda ishtirok.
Istisno	Buyurtma asosida oldindan belgilangan mahsulot yoki ob'ektni ishlab berish orqali moliyalashtirish.	Bank pudratchiga pul beradi; loyiha quriladi yoki mahsulot ishlab chiqariladi va bank tomonidan mijozga yetkaziladi.	Loyiha qiymati va muddatlari nazorat ostida; oldindan kelishilgan narx bank uchun barqarorlik yaratadi.
Salam	Kelajakdagi mahsulotni oldindan to'liq moliyalashtirib berish.	Bank mahsulot uchun to'liq avans to'laydi, mijoz esa keyinchalik mahsulot yetkazadi.	Yetkazib berish kafolatlari; fermer va ishlab chiqaruvchilarga likvidlik beradi.
Sukuk (islomiy obligatsiya)	Real aktivga bog'langan investitsion qimmatli qog'oz.	Bank sukuk chiqarilishi jarayonida ishtirok etadi yoki sukuk bozorida mablag' jalb qiladi.	Uzoq muddatli resurs manbai; risk past; investorlar uchun yuqori jozibadorlik.
Vakala	Bank mijoz nomidan moliyaviy operatsiyalarni komissiya asosida bajaradi.	Bank mijozga agent sifatida xizmat ko'rsatadi (import, investitsiya, moliyaviy boshqaruv).	Komissiya daromadi; huquqiy risk past; xizmatlar spektri kengayadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda Ipak Yo'li Banki "Shariatga muvofiq moliyalashtirish" bo'yicha xizmatlarni taklif qilmoqda. Hamkorbank tomonida esa "Islamic Finance" bo'yicha ekspert kengashi mavjud. Shuningdek, qonunchilik va reglamentlar orqali O'zbekistonda islom bankchiligi tizimini joriy qilish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Iqtisodiyotda islomiy ijtimoiy moliyalashtirish mexanizmi keng ko'lami ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishi bilan ahamiyatlidir. Shu o'rinda, islomiy ijtimoiy moliyalashtirishning zakot, sadaqa va vaqf kabi turlari haqida aholi, tadbirkorlar va banklar orasida muayyan tushunchaning mavjudligi ushbu mexanizmni joriy etishni rag'batlantiradi. Islom ijtimoiy moliyasi shariat tamoyillariga muvofiq daromad keltiruvchi moliyaviy vositalar sohasida tijorat moliyasini ham o'z ichiga oladi. Butun ekotizimning samaradorligi va uzluksizligini ta'minlash, Islom ijtimoiy moliya ekotizimiga kiritishda ushbu vositalarni jalb qilish moliyalashtirish uchun ko'proq mablag' to'plash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Islom bankchiligi tizimini milliy moliya sektoriga integratsiya qilish jarayoni iqtisodiy transformatsiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu tizimning asosiy ustunliklaridan biri mablag'larni boshqarishda teng sherikchilik, oshkorlik va risklarni adolatli taqsimlash tamoyillariga tayanishidir. Islomiy moliya amaliyotida omonatchilar bank tomonidan ularning mablag'lari qaysi yo'nalishlarga investitsiya qilinayotganini kuzatib borish imkoniga ega bo'ladi. Ularni bartaraf etish islomiy moliya tizimining transformatsiya jarayoniga to'laqonli integratsiyasini ta'minlaydi.

Birinchidan, global tajriba shuni ko'rsatadiki, islom moliyasi asosan musulmon aholisi ko'p bo'lgan va an'anaviy bank xizmatlaridan foydalanmayotgan aholi ulushi yuqori bo'lgan davlatlarda sezilarli kengaymoqda. Bundan tashqari, shariatga mos aktivlarga sarmoya kiritishga intilayotgan neft eksport qiluvchi mamlakatlar kapital oqimlari ham islom moliyasining jadal rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Islom moliyaviy tizimining jahon moliya tizimiga nisbatan nisbatan barqarorroq ekani ham ilmiy adabiyotlarda ko'p marotaba e'tirof etilgan.

Ikkinchidan, islomiy moliyalashtirish savdo, real aktivlar aylanmasi va aktivga asoslangan operatsiyalarni talab etadi. Mijoz talabiga ko'ra bankning ob'ekt qurib berishi, tovar yoki xomashyo xarid qilishi yoki aktivlarni ijaraga berishi islomiy moliya mexanizmlarining ajralmas qismidir. Biroq amaldagi soliq siyosati va bank operatsiyalarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy baza bunday savdo xarakteridagi operatsiyalarni bank faoliyati sifatida tan olishda yetarli darajada moslashtirilmagan. Bu esa islomiy moliya instrumentlarini keng joriy etishga ma'lum darajada to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli transformatsiya jarayonida banklar faoliyatining huquqiy chegaralarini qayta ko'rib chiqish, savdo asosidagi moliyalashtirish mexanizmlarini soliq va bank qonunchiligi bilan uyg'unlashtirish zarur.

Uchinchidan, shariat huquqi bo'yicha mutaxassislar bilan bank sohasi o'rtasida tizimli hamkorlikning yetarli emasligi islomiy moliya instrumentlarini amaliyotga tatbiq etish jarayonini murakkablashtirmoqda. Yirik tijorat banklari, shariat kengashlari va moliya-huquq sohasi ekspertlari o'rtasida yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'yish islomiy moliya mahsulotlarining mamlakatimiz bank tizimiga moslashuvchan tarzda integratsiya qilinishiga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy moliyaviy shartnomalarni shariat talablariga muvofiqlashtirish va ularning amaliy qo'llanilish doirasini aniq belgilash imkonini beradi.

To'rtinchidan, global moliya tizimida sinovdan o'tgan murakkab islomiy instrumentlardan sukuk, istisno, salam, musharaka, mudaraba kabi modellar asosida yaratilgan huquqiy va moliyaviy konstruksiyalardan samarali foydalanish zarur. O'zbekiston sharoitida ushbu instrumentlarni joriy etish xalqaro standartlar, xalqaro moliya institutlari talablari va yirik banklar amaliyoti bilan muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishi zarur. Bu islomiy moliyalashtirishning jozibadorligini oshiradi, xorijiy investorlar ishonchini kuchaytiradi va moliyaviy transformatsiya jarayonini tezlashtiradi.

Umuman olganda, islom bankchiligi tizimini mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiyasi sharoitida ushbu tizimning joriy etilishi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, investitsiya oqimlarini diversifikatsiya qilish va xalqaro moliyaviy integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>. 2020 йил 29 декабрь.
2. Э.Т. Қодиров, Ж.К. Мажидов Хорижий мамлакатларда банк иши. Ўқув қўлланма/Т. 2016 йил. 184 бет.
3. Мусаев Р.А., Магомедова Ю.Д. Тенденции развития исламских финансовых институтов в условиях глобализации в журнале Проблемы теории и практики управления, издательство ООО «Международная Медиа Группа» (Москва), № 11
4. Зарипов И.А. (2016) Исламские финансы как стратегический ориентир развития России. / Zaripov I.A. (2016) Islamic finance as a strategic landmark for the development of Russia. <https://cyberleninka.ru/>.
5. Rafik Yunus al-Misri. Fikih imushchestvennykh otnosheniy. / per. s arab. [Fiqh property relations. / translated from Arabic] / D.Adzhi; redsovet: B.F.Mulyukov and others, - Moskva: Islamskaya kn., 2014. – P. 320.
6. El-Gamal Mahmoud A. Islamic finance: law, economics and practice. Cambridge University press, 2006 year.222 p.
7. Gait, A. and Worthington, A.. An empirical survey of individual customer, business firms and financial institution attitudes towards Islamic methods of finance, International Journal of Social Economics, 35(11), 2008 y.783-808 p.
8. Lewis M.K. and Algaoud L.M. Islamic Banking. Northampton, Massachusetts, USA: Edward Elgar Publishing Ltd. 2001 y.253-258 p.
9. Al-Zuhaili W. Financial Transactions in Islamic Jurisprudence. Vol. 1. Beirut (Lebanon): Dar al-Fikr, 2003.
10. M Kahf Islamic banks: The rise of a new power alliance of wealth and shari'a scholarship- The politics of Islamic finance, 2004

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100